

FRAZEOLOGIZMLARNING ASOSIY MORFOLOGIK BELGILARI

Ilmiy raxbar: Djalilova Gulnora Xamzayevna

Isomidinova Zilola Azimjon qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Oliy jurnalistika fakulteti 2 kurs magistratura talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tilning frazeologik fondi lisoniy madaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti sifatida millat mentaliteti va madaniyati haqidagi qimmatli madaniy axborotlar manbai hisoblanishi, Lingvistika va madaniyatshunoslik paradigmalari kesishmasida vujudga kelgan lisoniy madaniyatshunoslik fanining mohiyati madaniyat, til va mentalitet o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tabiatini ochib berish hisoblanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *til, tilshunoslik, frazeologiya, xususiyat, birikmalar, grammatika, predmet, madaniyatshunoslik, ma'no.*

Tilda har bir so'z o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Bu xususiyatni so'z birikmalariga nisbatan ham aytish mumkin. So'zlar va so'z birikmalari ma'lum usullar bilan birikadi. Bu grammatik abstraksiyaning natijasidir.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik ma'noli so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan munosabatga kirishishi va atash vazifasini bajarishi asosida hosil bo'lgan sintaktik qurilmaga *so'z birikmasi* deyiladi. Ta'rifdan ko'rinadiki, so'z birikmasida grammatikaning yordami bilan leksik ma'nolar munosabati vujudga keladi va shu yo'l bilan murakkab tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan, *qizil* va *qalam* so'zlari tobelanish orqali o'zaro birikib, *qizil qalam* tipidagi murakkab tushuncha hosil bo'ladi. So'zlar ko'pincha o'z mustaqilligini saqlagan holda birikib keladi. So'zlar-ning bunday birikishi nutq jarayonining o'zida sodir bo'ladi ya ular erkin birikmalar deb yuritiladi.

Frazeologik sinonimiya – sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, frazeologik birliklar orasida ham anchagina. Ikki frazeologik birlikni sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Frazeologizm - bu iborani yoki iborani, uning ma'nosini uning alohida tarkibiy qismlari bilan ifodalash mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, frazeologik birlikni so'zma-so'z talqin qilish ko'pincha noto'g'ri. Butun iboraning ma'nosini bir butun sifatida bilish kerak, chunki uni so'z bilan ajratish mumkin emas. Shuning uchun ham frazeologik birliklarni o'rganish chet tillarini tushunadiganlar uchun eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Qoidaga ko'ra u yoki bu frazeologik birlikning paydo bo'lishi ba'zi bir adabiy asarlar yoki tarixiy voqealar tufayli yuzaga keladi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar har xil xalq maqollarini to'liq o'lchaydilar, ularning ma'nosini alohida so'zlar ma'nosiga qarab baholash qiyin. Bunday majoziy iboralarning asosiy vazifasi, avvalo, nutqni boyitish, og'zaki yoki yozma ravishda yozishdir., unga o'ziga xos hissiy rang, jonli va obrazli rang berish. Biroq, frazeologik

birliklarning haddan tashqari ko'pligi nutqqa haddan tashqari oddiy odamlarni va soddalikni keltirib chiqarishi mumkin, bu rasmiy aloqada yoki ishbilarmonlik hujjatlari va ilmiy asarlarni tayyorlashda umuman qabul qilinishi mumkin emas.

Frazeologizmlar ya'ni iboralarga ta'sir ko'rsatuchi omillardan yana bir bu tarjima adabiyot hisoblanadi. Turli tillarda va turli xalqlarga mansub asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ayrim frazeologizmlar ma'lum ma'noda o'zgarishga uchrashi mumkin, shuning uchun ham frazeologizmi tarjima qilish katta mahurat talab etadi. Iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ma'noning buzilishiga olib keladi.

Inson borliqdagi predmet va hodisalarni o'zi yashab turgan jo'g'rofiy hududi, jamiyatning shakli, tarixi va an'analari, turmush tarzi kabi omillardan kelib chiqqan holda idrok qiladi va til birliklari vositasida nomlaydi va ifoda etadi.

Tilning frazeologik fondi lisoniy madaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti sifatida millat mentaliteti va madaniyati haqidagi qimmatli madaniy axborotlar manbai hisoblanadi. O'rganish ob'ekti sifatida frazeologizmlar o'ziga xos til birligi sanalib, ifoda va mazmun planiga ega. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik sath tor va keng doirada tushunilmoqda, turg'un so'z birikmalarini ifodalovchi atamalar ham turli-tuman va bahsli ta'riflarga egadir.

Lisoniy madaniyatshunoslik ilk shakllanish bosqichlarida o'zining integtariv tabiatidan kelib chiqib lingvomadaniy predmet/obyektlarni o'rganishda etnolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fan sohalari tadqiqot metod va usullaridan foydalangan bo'lsa, keyinchalik asta - sekin o'z metod va usullariga ega bo'lib bordi: konseptual-ideografik tahlil, etnomadaniy ong negizida profillash, til egasining «nutqiy portreti» va hkz. Frazeologik materiallar lingvomadaniy aspektlarini o'rganishda qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib komponent tahlil, konseptual-ideografik tahlil, frazeo-semantik maydon, metaforik model kabi turli metod va usullardan foydalanilmoqda. Konseptlar asosida til sohiblari ongida olamning manzarasi

shakllanadi va bu til birliklari, xususan frazeologizmlarda ham aks etadi. Frazeologizmlar tilda madaniy axborotlar va milliy tafakkur tarzini o'zida aks ettirgan kommunikativ - situativ jarayonining muhim birliklaridan biri hisoblanib, muayyan lingvomadaniy jamoaning o'ziga xos tabiatini ifoda etuvchi lisoniy-nutqiy ifodalardir.

Tilning frazeologik sathiga daxldor milliy-madaniy unsurlarga nisbatan ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida bir qator e'tiborga molik tadqiqotlar (V.Teliya, V.Maslova, A.Vierzbicka, J.Lakoff, A.Nasisione, M.Xoliqova, N.Mahmudov, A.Mamatov, B.Yoldoshev amalga oshirilgan.

Shu bilan birga o'zbek tilshunosligida milliy-madaniy dunyoqarashning frazeologik sathdagi tadqiqi to'laligicha o'rganilgan deb bo'lmaydi. Bu esa olam idrokini frazeologizmlarda ifodalanishi va ularni talqin etish bilan bog'liq murakkab jarayonlarni monografik asosda tadqiq etish zaruriyati mavjudligini tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqib, ishda milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarni tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va tahlil etish maqsad qilib qo'yildi.

Lingvistika va madaniyatshunoslik paradigmalari kesishmasida vujudga kelgan lisoniy madaniyatshunoslik fanining mohiyati madaniyat, til va mentalitet o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tabiatini ochib berish hisoblanadi. Madaniyatshunoslik insonning

tabiat, tarix, jamiyat, ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa sohalariga nisbatan insonning o‘zini-o‘zi anglashini tadqiq etsa, antropotsentrik nuqtai nazardan tilshunoslik tilda mujassam insonning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. O‘ziga xos xususiyatlarga olamni idrok qilish, atrof-borliqning lisoniy ongda aks etishi, zohiriy va botiniy olam hamda

uning obyektlarini o‘zlashtirish natijalarini til vositalari bilan fiksatsiyalash kiradi. Mentalitet - voqelikni idrok etishning muayyan lingvomadaniy jamoa uchun xarakterli bo‘lgan spetsifik usuli va kognitiv stereotiplar majmuidir.

Olamning lisoniy manzarasini hosil qiluvchi verballashgan nomoddiy va moddiy madaniyat tadqiqi lisoniy madaniyatshunoslik predmeti hisoblanadi.

Asrlar davomida shakllangan Frazologizmlar og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o‘tkir, ta’sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida Frazologizmlar dan unumli foydalanish bilan birga mavjud Frazologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o‘zgartiradilar, shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratadilar. Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad va boshqa tomonidan ijod qilingan F.lar bunga misol bo‘la oladi.

Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan Frazologizmlar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi F.lar bilan boyib boradi va xalqning madaniy tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sh.Rahmatullaev. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko‘rki, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.
4. Hozirgi zamon o‘zbek tili, Toshkent, 1957, 152-181-b.
5. A.Mamatov. Frazologizmlarning shakllanish asoslari